

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

грамматики через игровые ситуации. Оценивание языковой компетенции. Самооценка — важный элемент, который учит студентов критически оценивать свои достижения и недостатки. Языковая компетенция играет важнейшую роль в образовательном процессе, так как она помогает студентам освоить язык как инструмент общения и культурного обмена. Дидактический комплекс упражнений в образном монологическом высказывании интегрируется в общую систему упражнений в устной речевой практике будущего студента, включающей формирование навыков и умений монологического и диалогического говорения и аудирования во взаимосвязи с чтением и письмом. Таким образом, языковая компетенция играет важнейшую роль в образовательном процессе, так как она помогает студентам освоить язык как инструмент общения и культурного обмена.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бастуй Н.В. Индивидуальные особенности лингвистической и коммуникативной компетенции личности // Современная психология: состояние и перспективы: сб. ст. - М., 2002. - Т. 2. - С. 22-25.
2. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - 2003. - № 5. - С. 34-42.
3. Калямова Л.А. Формирование языковой компетенции как одна из важнейших целей современной системы образования / Л.А. Калямова // Новый филологический вестник. - 2010. - № 3. - С. 123-128.
4. Компетенции в образовании: опыт проектирования: сб. науч. тр. / под ред. А.В. Хуторского. - М.: Научно-внедренческое предприятие «ИНЭК», 2007. - 327 с.
5. Козлова Ю.Д. Языковая компетенция учащихся средней школы на уроках иностранного языка // Вестник науки №11 (80) том 1. С. 622 - 627. 2024 г. ISSN 2712-8849 // Электронный ресурс: <https://www.vestnik-nauki.pf/article/18315> (дата обращения: 18.06.2025 г.)
6. Серова Т.С., Шрайдман Т.В. Средства образности монологического высказывания в процессе устного последовательного одностороннего перевода // Сибирский пед. журнал. - 2010. - № 1. - С. 164-174.
7. А.А. Акишина, О.Е. Каган Учимся учить: для преподавателя русского языка как иностранного. 2-е изд., испр. и доп. - М.: Русс.яз. Курсы (2002)

BANK XIZMATLARI ORQALI AHOLI MOLIIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

Aminova Shaxnoza Nodirovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada bank xizmatlari orqali aholi moliyaviy savodxonligini oshirishga doir strategik yondashuvlar keng qamrovda tahlil qilinadi. Moliyaviy savodxonlik*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

darajasining pastligi aholining bank xizmatlaridan to'liq foydalana olmasligiga, kreditga nisbatan noto'g'ri yondashuvlar va moliyaviy firibgarliklar xavfini oshishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, banklar tomonidan moliyaviy ta'limni rivojlantirish, aholining moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi ishonchini oshirish va zamonaviy raqamli xizmatlarni ommalashtirish kabi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi banklarining amaliy tajribasi o'rganildi, xalqaro ilg'or tajribalar bilan qiyosiy tahlil olib borildi. Xususan, raqamli bank xizmatlari, mobil ilovalar orqali moliyaviy ma'lumot tarqatish, o'quv dasturlari, vebinar va treninglar orqali aholiga yo'naltirilgan maqsadli ta'lim shakllari tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha kompleks takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: bank xizmatlari, moliyaviy savodxonlik, raqamli texnologiyalar, O'zbekiston, strategik yondashuvlar, moliyaviy ta'lim

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются стратегические подходы к повышению финансовой грамотности населения посредством банковских услуг. Низкий уровень финансовой осведомлённости способствует недоверию к банкам, неправильному использованию кредитных продуктов и росту финансовых рисков. В связи с этим особое внимание уделено механизмам повышения информированности граждан, в том числе внедрению цифровых технологий, развитию дистанционного банковского обслуживания и программ финансового просвещения. Проанализирован практический опыт банков Узбекистана, а также проведено сопоставление с международной практикой. Выделены эффективные формы обучения, такие как мобильные приложения, онлайн-семинары, образовательные курсы и индивидуальные консультации. По итогам исследования предложены конкретные меры для повышения уровня финансовой грамотности в стране.

Ключевые слова: банковские услуги, финансовая грамотность, цифровые технологии, Узбекистан, стратегии, финансовое просвещение

ABSTRACT: This article explores strategic approaches to enhancing financial literacy among the population through banking services. A low level of financial awareness limits access to financial tools, increases the risk of misusing credit services, and contributes to rising fraud cases. In this context, banks play a crucial role in promoting financial education, building public trust, and introducing user-friendly digital banking solutions. The study examines the practical experience of commercial banks in Uzbekistan and compares it with global best practices. Special attention is paid to tools such as mobile banking apps, targeted educational programs, online webinars, and personal finance consultations. Based on the findings, the paper proposes a set of integrated strategies aimed at improving financial literacy in Uzbekistan.

Keywords: banking services, financial literacy, digital technologies, Uzbekistan, strategies, financial education

KIRISH

XXI asrda moliyaviy savodxonlik darajasi har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar moliyaviy savodxonlikning aholining farovonligi, bank tizimiga bo'lgan ishonchi hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Aholining bank xizmatlaridan foydalana olish darajasi, moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi ishonchi va moliyaviy intizomga rioya etishi moliyaviy savodxonlikka to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmonida ham fuqarolarning moliyaviy savodxonligini oshirish, ularni zamonaviy bank xizmatlari bilan keng qamrovda ta'minlash bo'yicha vazifalar belgilangan. Bu esa, banklar zimmasiga nafaqat moliyaviy vositachilik, balki aholining moliyaviy ongini shakllantirishda faol ishtirokchi bo'lish vazifasini yuklaydi. Bugungi kunda bank-mijoz munosabatlari raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, elektron to'lov tizimlari orqali yangi bosqichga o'tdi. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi bu xizmatlardan foydalanishda bir qator to'siqlarga sabab bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u bank xizmatlari orqali aholi moliyaviy savodxonligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda xalqaro tajriba asosida samarali strategiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda banklar tomonidan moliyaviy ta'lim dasturlari joriy etilishi, raqamli xizmatlardan foydalangan holda axborot tarqatish mexanizmlari va fuqarolarning moliyaviy xatti-harakatlarini shakllantirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Bank xizmatlari orqali aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi ko'plab iqtisodchilar va moliyaviy pedagoglar tadqiqotlarida markaziy mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Lusardi va Mitchel moliyaviy savodxonlik darajasining aholi farovonligiga va qaror qabul qilishdagi ishonchlilikka ta'sirini chuqur o'rganib, moliyaviy bilimlarning uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy foydasini asoslab bergan. Ularning ta'kidlashicha, moliyaviy savodxon shaxslar kredit, jamg'arma, investitsiya va nafaqa rejalashtirish bo'yicha ancha puxta qarorlar qabul qiladi.

OECD tomonidan o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlarda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha milliy strategiyalar ishlab chiqish zarurligi, bunda banklar, moliyaviy institutlar va ta'lim muassasalari hamkorlikda ishlashi kerakligi alohida ta'kidlangan. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham dolzarb bo'lib, bu yo'nalishda banklar faol ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Shuningdek, Jahon bankining “Global Findex” hisoboti moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish darajasining moliyaviy savodxonlik bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, raqamli to‘lov vositalari, onlayn banking va mobil ilovalar orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanish aholining moliyaviy bilimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli transformatsiyaning bank sektoriga kirib kelishi hamda mobil moliyaviy xizmatlarning kengayishi bu boradagi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zaruratini kuchaytirmoqda.

O‘zbekistonda bu yo‘nalishda ilk qadamlardan biri sifatida Markaziy bank tomonidan moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha platformalar yaratildi va tijorat banklari tomonidan aholiga yo‘naltirilgan treninglar o‘tkazilmoqda. Xususan, Navoiy, Farg‘ona, Qoraqalpog‘iston hududlarida o‘tkazilgan pilot loyihalar aholining moliyaviy bilim darajasi va raqamli xizmatlarga nisbatan qiziqishini oshirishga yordam bergani aniqlangan.

Yana bir muhim manba sifatida Atkinson va Messy tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy savodxonlik indikatorlari tizimi keltiriladi. Ular bilim, xatti-harakat va motivatsiya omillarini bir butun tizimda baholashni taklif qilgan. Bu yondashuv bank xizmatlari orqali savodxonlikni oshirishda o‘lchov mezonlarini aniqlash uchun qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda ma’lumotlar O‘zbekiston tijorat banklari faoliyati, Markaziy bank statistikasi hamda Global Findex hisobotlari asosida yig‘ildi. So‘rovnoma va yarimstrukturaviy intervyular orqali aholi moliyaviy savodxonligi baholandi. Olingan ma’lumotlar deskriptiv statistika, korrelyatsion tahlil va qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Bank xizmatlari orqali aholi moliyaviy savodxonligini oshirish borasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, aholining moliyaviy bilim darajasi ularning bank xizmatlaridan foydalanish faolligiga, to‘lov intizomiga, jamg‘arma shakllantirish odatlariga va moliyaviy rejalashtirish ko‘nikmalariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi hududlarida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, aholining 38,2 foizi o‘zini moliyaviy jihatdan savodli deb hisoblaydi, 42,7 foizi moliyaviy xizmatlardan foydalanish bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligini tan oladi, qolgan 19,1 foiz esa hech qachon bank xizmatlaridan foydalangan emas. Ushbu raqamlar shuni anglatadiki, aholi orasida moliyaviy savodxonlik darajasi hanuzgacha past bo‘lib qolmoqda va bu omil jamiyatda moliyaviy muvozanat va barqarorlikni ta’minlashga jiddiy to‘sqinlik qilmoqda. Aholining moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi noaniqligi, foiz stavkalari, kredit shartnomalari, bank mahsulotlarining turlari va ularning afzalliklarini yetarlicha tushunmasligi ko‘plab moliyaviy xatoliklarga olib kelmoqda. Ayniqsa, mikromoliyalashtirish, onlayn kreditlar, QR-to‘lovlar va kontaktless xizmatlar bo‘yicha tushunchalarning yetishmasligi ushbu xizmatlarning aholiga keng yetib borishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Tadqiqot doirasida 2024-yil mart–may oylarida Toshkent shahri, Samarqand, Andijon, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida 1200 nafardan ortiq respondentlar o‘rtasida o‘tkazilgan

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

test-sorovnomalar tahlil qilindi. Respondentlarning 65 foizi raqamli bank xizmatlaridan foydalanish qulayligini tan olgan bo'lsa-da, ularning atigi 34 foizi onlayn bank operatsiyalarini to'liq tushunishini bildirgan. Ayniqsa, 45 yoshdan yuqori bo'lgan aholining aksariyati mobil ilovalar, QR-to'lov, elektron hisobvaraqa ochish va foydalanish bo'yicha bilimlarga ega emasligi aniqlandi. Bundan ko'rinadiki, bank xizmatlarining ommalashuvi texnologik jihatdan mavjud bo'lsa-da, aholining psixologik, axborotli va funksional jihatdan tayyor emasligi ularni amalda qo'llash darajasini keskin pasaytirgan.

1-jadval

Aholining moliyaviy savodxonligi va bank xizmatlaridan foydalanish darajasi (so'rovnoma asosida, 2024-yil)

Hudud	Bank xizmatlaridan muntazam foydalanuvchilar (%)	Moliyaviy savodxon deb o'zini baholaganlar (%)	Raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar (%)
Toshkent shahri	79,4	62,1	71,3
Samarqand viloyati	54,2	48,5	50,6
Andijon viloyati	46,8	41,7	44,2
Qashqadaryo viloyati	38,0	33,2	31,7
Xorazm viloyati	43,7	36,4	39,5
O'rtacha	52,4	44,4	47,5

Banklar tomonidan olib borilgan moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlar faollashganiga qaramay, ularning qamrovi va samaradorligi past darajada bo'lib qolmoqda. Jumladan, 2023–2024-yillarda yirik banklar – Ipoteka-bank, Xalq banki, Agrobank, Mikro kreditbank va Aloqabank tomonidan 50 dan ortiq hududiy seminarlarda 10 mingdan ortiq aholiga moliyaviy ta'lim berilgan bo'lsa-da, bu son milliy miqyosda yetarli emas. Ayni vaqtda 36 milliondan ortiq aholi yashaydigan O'zbekistonda har 3600 kishiga bitta moliyaviy ta'lim vakili to'g'ri kelmoqda, bu esa rivojlangan davlatlar (masalan, Janubiy Koreyada har 950 kishiga 1 ta) ko'rsatkichidan ancha past. Bu esa moliyaviy ta'lim tizimini markazlashtirilgan, raqamli va tizimli shaklda yo'lga qo'yish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yana bir muhim jihat shuki, bank xizmatlari va moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik korrelyatsion tahlil yordamida aniqlab chiqildi. So'rov ishtirokchilarining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi (mobil ilova orqali to'lov, jamg'arma ochish, kredit olish, plastik karta orqali mablag'larni boshqarish) va ularning moliyaviy bilimlari (budjet tuzish, foiz

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

hisoblash, kreditni tahlil qilish) o‘rtasida $r=0.73$ ($p<0.01$) darajadagi musbat bog‘liqlik mavjudligi qayd etildi. Bu shuni anglatadiki, moliyaviy bilimlar ortgan sayin bank xizmatlariga bo‘lgan talab va ularni to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyati oshadi.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslash maqsadida Polsha, Malayziya, Braziliya va Turkiya kabi mamlakatlarda joriy etilgan moliyaviy savodxonlik dasturlari o‘rganildi. Jumladan, Polshada “Finanse dla wszystkich” (Hamma uchun moliya) dasturi asosida banklar maktablar bilan hamkorlikda moliyaviy bilimlar darslarini tashkil etgan. Malayziyada esa banklar va universitetlar o‘rtasida memorandum asosida talabalar uchun kredit va investitsiya bilimlarini o‘z ichiga olgan mini-kurslar joriy etilgan. O‘zbekiston sharoitida esa bu kabi integratsion yondashuvlar hali keng joriy etilmagan bo‘lib, bu soha rivoji uchun katta imkoniyat saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, aholining 51,6 foizi bank xizmatlariga nisbatan ishonchsizlik mavjudligini bildirgan. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan: xizmat ko‘rsatishdagi murakkab jarayonlar, yomon tushuntirilgan shartnomalar, kredit olishdagi byurokratik to‘siqlar, mijozlar ehtiyojlariga moslashtirilmagan interfeyslar va moliyaviy xavfsizlik borasidagi xavotirlar. Shuningdek, aholi orasida firibgarlik holatlarining ortishi, telefon orqali kredit olish yoki investitsiya takliflari orqali aldash holatlari, moliyaviy savodxonlik yetishmasligi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu esa, bir tomondan, banklar tomonidan ishonchni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rilishini, boshqa tomondan esa aholining moliyaviy madaniyatini oshirish zaruratini yanada dolzarb qiladi.

Tahlil natijalari asosida quyidagilar aniqlandi: birinchidan, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda banklarning roli cheklangan bo‘lib qolmoqda va bu masala faqat ixtiyoriy asosda amalga oshirilmoqda; ikkinchidan, mavjud dasturlar bir martalik yoki qisqa muddatli shaklda bo‘lib, tizimlilik yetishmaydi; uchinchidan, zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali aholiga axborot berish mexanizmlari keng yo‘lga qo‘yilmagan. Ayni paytda, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda bank xizmatlaridan foydalanish ko‘rsatkichi ham yuqori bo‘lib, bu ikki omil o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqasini yaqqol ko‘rsatadi. Masalan, Toshkent shahrida respondentlarning 79 foizi bank ilovalaridan faol foydalansa, bu ko‘rsatkich Qashqadaryo viloyatida 38 foiz atrofida bo‘lmoqda.

Umuman olganda, bank xizmatlari va moliyaviy savodxonlik o‘rtasida kuchli o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu ikki tizimni integratsiyalashgan holda rivojlantirish aholi farovonligi va mamlakat iqtisodiy barqarorligi uchun zarur omillardan biri ekanligi isbotlandi. Buning uchun banklar tomonidan interaktiv treninglar, video darsliklar, onlayn viktorinalar va real hayotiy misollar asosidagi ta‘lim modullari ishlab chiqilishi, maktab va oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda moliyaviy ta‘lim kurslari yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek, hukumat darajasida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa va takliflar

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

O‘zbekiston Respublikasida bank tizimining izchil rivojlanishi bilan bir qatorda, aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish dolzarb muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, bank xizmatlaridan foydalanish samaradorligi bevosita moliyaviy bilim, tushuncha va xatti-harakatlarga bog‘liq bo‘lib, bu omil fuqarolarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi xatolarini kamaytiradi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Aholi orasida bank mahsulotlariga bo‘lgan ishonchning yetarli emasligi, raqamli xizmatlar bo‘yicha yetarli axborotning yo‘qligi, shuningdek, moliyaviy tahdidlar va firibgarlik holatlari ularga bo‘lgan ishonchni susaytirayotgani aniqlangan.

Tahlillardan kelib chiqib, moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Banklar tomonidan tizimli moliyaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish: Tijorat banklari faqat mahsulot sotuvchi emas, balki aholining moliyaviy madaniyatini shakllantiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi zarur. Bu borada yoshlar, pensionerlar va kam ta’minlangan qatlamlar uchun alohida maqsadli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish lozim.

2. Raqamli ta’lim platformalarini yaratish va ommalashtirish: Mobil ilovalar, onlayn testlar, interaktiv videodarslar va qisqa animatsion ko‘rsatmalar orqali aholiga moliyaviy ma’lumotlar yetkazilishi ta’lim qamrovini oshiradi. Maxsus bank ilovalari ichida “Moliyaviy maslahat” yoki “Bilim testi” bo‘limlarini yaratish foydali bo‘ladi.

3. Maktab va oliy ta’lim muassasalari bilan integratsiyalashgan ta’lim: Moliyaviy savodxonlikni maktab darsliklariga bosqichma-bosqich kiritish, oliygohlarda alohida modullar sifatida o‘qitish, bank mutaxassislari ishtirokida ochiq darslar tashkil etish zarur.

4. Hududiy moliyaviy savodxonlik markazlarini tashkil etish: Har bir viloyatda banklar bilan hamkorlikda moliyaviy maslahat markazlarini ochish aholiga amaliy yordam ko‘rsatish, real misollar orqali tushuntirish imkonini beradi. Bu markazlar mobil savodxonlik avtobuslari shaklida chekka hududlarga chiqish formatida ham faoliyat yurita oladi.

5. Davlat miqyosida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha milliy strategiyani ishlab chiqish: Moliyaviy ta’lim bo‘yicha yagona konsepsiya, monitoring tizimi, baholash indikatorlari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi hamkorlik mexanizmlari aniqlanishi zarur. Markaziy bank va Moliya vazirligi ushbu yo‘nalishda koordinatsion rolda bo‘lishi lozim.

6. Axborot xavfsizligi va firibgarlikdan himoyalash bo‘yicha alohida tushuntirish ishlari: Banklar tomonidan moliyaviy firibgarlikning oldini olish, ishonchli platformalardan foydalanish va shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish bo‘yicha videoroliklar, bukletlar va matbuot orqali aholiga muntazam axborot berilishi kerak.

7. Moliyaviy savodxonlikning baholash tizimini ishlab chiqish: Har yili aholining moliyaviy savodxonlik darajasini baholovchi indeks ishlab chiqish, bu orqali hududlar kesimidagi natijalarni aniqlash va siyosatni yo‘naltirish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy savodxonlikni oshirish bank xizmatlarining barqarorligi, aholining iqtisodiy mustaqilligi va mamlakatning moliyaviy inkluzivligini ta’minlashda hal qiluvchi omildir. Shu sababli, bank sektorining barcha ishtirokchilari, davlat organlari va ta’lim muassasalari o‘zaro hamkorlikda ishlagan taqdirdagina yuqori natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. *Journal of Economic Literature*, 52(1), 5–44. <https://doi.org/10.1257/jel.52.1.5>
2. OECD. (2020). *OECD/INFE International Survey of Adult Financial Literacy*. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/financial/education/>
3. World Bank. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. Washington, DC: World Bank Group. <https://globalfindex.worldbank.org>
4. Atkinson, A., & Messy, F. (2012). *Measuring Financial Literacy: Results of the OECD/INFE Pilot Study*. OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions, No. 15. <https://doi.org/10.1787/5k9csfs90fr4-en>
5. GFLEC (Global Financial Literacy Excellence Center). (2019). *Financial Capability Around the World: Insights from the Standard & Poor’s Ratings Services Global Financial Literacy Survey*. <https://gflec.org/>
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha metodik qo‘llanma*. Toshkent: MBR.
7. Rakhmonov, S. A. (2022). Bank xizmatlarini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 6(4), 112–117.
8. Yusupova, G. M. (2023). Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda tijorat banklarining roli. *Moliyaviy va bank ishi jurnali*, 2(1), 85–92.
9. Central Bank of Malaysia. (2020). *Financial Education Network Annual Report*. <https://www.bnm.gov.my/>
10. Polish Financial Supervision Authority (KNF). (2021). *Finanse dla wszystkich program overview*. <https://www.knf.gov.pl/>

JADIDLAR MA’RIFATI — YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MA’NAVIY ILDIZI

Maxmudov Dilshod Kilichboyevich
Oriental universiteti, Filologiya fakulteti,
(Arab tili yo‘nalishi), 2-bosqich talabasi,
tel: +998 97 820 20 98
E-mail: md_hon087@mail.ru

“Jadidlar g‘oyalari Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir.”
Shavkat Mirziyoyev